

**SUDLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH, SUD MUSTAQILLIGINI
TA'MINLASH VA ODIL SUDLOV KAFOLATLARINI KUCHAYTIRISH****Iskandarov Muhammadali Shuxratovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Samarqand viloyati akademik litseyi o'quvchisi.

Otaqulov Jamshid Zubaydullayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Samarqand viloyati akademik litseyi yoshlar ishlari bo'yicha o'rinbosari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22649977>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining shakllanishi va rivojlanishi, sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, sud mustaqilligining konstitutsiyaviy asoslari hamda odil sudlovga erishish kafolatlarini kuchaytirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: sud hokimiyati, odil sudlov, sud mustaqilligi, sudya daxlsizligi, qonun ustuvorligi, apellatsiya, kassatsiya, sud-huquq islohotlari.

Abstract. This article examines the development of the judiciary in Uzbekistan, judicial reforms, constitutional guarantees of judicial independence and measures aimed at strengthening access to justice. The paper also provides proposals for improving the effectiveness of courts.

Key words: judiciary, justice, judicial independence, rule of law, appeal, cassation, judicial reforms.

Kirish. Sud hokimiyati huquqiy demokratik davlatning eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. U fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda jamiyatda adolatni qaror toptirish vazifasini bajaradi. \

Sudlarning mustaqil va xolis faoliyati bo'lmagan davlatda inson huquqlarining to'liq himoyasi, tadbirkorlik erkinligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash qiyinlashadi.

Shu sababli sud tizimini rivojlantirish har qanday davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish jarayoni boshlandi. Konstitutsiyada hokimiyatlar bo'linishi prinsipi mustahkamlandi va sud hokimiyati alohida mustaqil tarmoq sifatida e'tirof etildi. Bu esa sudlarning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini yanada oshirdi.

Sud tizimining rivojlanishida "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi muhim bosqich bo'ldi. Ushbu qonun sudlarning tashkil etilishi, sudyalarning maqomi, ularning huquq va majburiyatlari hamda odil sudlovni amalga oshirishning asosiy prinsiplarini belgilab berdi.

Qonunda sud mustaqilligi, qonuniylik, tenglik va oshkoralik tamoyillari mustahkamlandi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, ma'muriy sudlarning tashkil etilishi, iqtisodiy sudlar faoliyatining takomillashtirilishi, tergov ustidan sud nazoratining kuchaytirilishi hamda elektron sud tizimlarining joriy qilinishi muhim natijalardan hisoblanadi. Mazkur islohotlar fuqarolarning sud himoyasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Sud mustaqilligi odil sudlovning asosiy kafolati hisoblanadi. Sudya qaror qabul qilish jarayonida faqat qonunga va o'z ichki ishonchiga tayanishi kerak. Sudyalarning faoliyatiga aralashish, ularga bosim o'tkazish yoki qarorlariga noqonuniy ta'sir ko'rsatish qonunga xilof hisoblanadi.

Shu sababli sudyalarning daxlsizligi va ijtimoiy himoyasi davlat tomonidan kafolatlanadi.

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2026-yil 14-avgustdagi **“Odil sudlov — 2030”**: **Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini ishonchli ximoya qiluvchi xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish strategiyasi to'g'risida»** gi PF-160-sonli Farmoni ushbu sohada strategik islohotlarning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu islohotlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (VII bo'lim, «Sud hokimiyati») hamda yangi tahrirdagi «Sudlar to'g'risida»gi Qonun (O'RQ-703-son) doirasida belgilangan davlat organlarining bo'linishi, sudyalar mustaqilligi va fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan huquqlari tamoyillari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda.

Mazkur strategiya mamlakatimiz sud-huquq tizimini islox qilishning 6 ta ustuvor yo'nalishini belgilab beradi:

1. Strategiyaning 6 ustuni va qonunchilik bazasi

Farmon va Strategiyaga muvofiq, 2030-yilgacha bo'lgan davrda sud hokimiyati faoliyati quyidagi 6 ta ustuvor yo'nalish (ustun) asosida amalga oshiriladi:

«Xalqchil sud»: Sudlar faoliyatining shaffofligini, axborot olish imkoniyatlarini kengaytirish va sudlarni byurokratiyadan xoli tizimga aylantirish.

«Adolat qasri»: Inson huquqlari ustuvorligini ta'minlaydigan, Konstitutsiyaning 130-moddasi hamda «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan mustaqil bo'lgan sud tizimini mustahkamlash.

«Kafolatlangan adolat»: Qonuniy, adolatli va asoslantirilgan sud qarorlarini qabul qilish, «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasida mustahkamlangan qonun va sud oldida tenglik tamoyilini to'liq ro'yobga chiqarish.

«Adolat posbonlari»: Yuksak ma'naviy va professional fazilatlariga ega, halol, mas'uliyatli va xalq xizmatida bo'lgan sudyalar korpusini shakllantirish.

«Raqamli odil sudlov»: Sud ish yurituvini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt hamda zamonaviy IT-texnologiyalarni sud amaliyotiga integratsiya qilish.

«Xalqaro e'tirof»: Inson huquqlari sohasidagi ilg'or xalqaro standartlarni milliy amaliyotga tatbiq etish va mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash.

2. Ma'muriy-hududiy va protsessual yangiliklar

O'zbekiston Respublikasi «Sudlar to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida sud tizimining ixtisoslashuvi ko'zda tutilgan bo'lib, PF-160-sonli Farmon bilan bu borada quyidagi institutsional o'zgarishlar belgilandi:

1. Hududlararo sudlar tashkil etiladi: 2027-yil 1-iyuldan boshlab umumyurisdiksiya va ma'muriy sud yo'nalishlarida ishlarni qayta ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan, bir nechta ma'muriy-hududiy birliklarni qamrab oluvchi hududlararo sudlar tuziladi.

2. Fuqarolik sudlari aholiga yaqinlashtiriladi: 2027–2030-yillarda barcha tuman va shaharlarda fuqarolik ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

3. «Yagona darcha» xizmat ko'rsatish ofislari: 2030-yilga qadar sud binolarida fuqarolar va tadbirkorlarga qulaylik yaratish, arizalarni qabul qilish va raqamli xizmat ko'rsatish uchun «yagona darcha» ofislari yo'lga qo'yiladi.

4. Arizani qaytarish institutini islox qilish: Arizani «ish mazkur sudning sudloviga tegishli emas» degan vaj bilan qaytarish amaliyoti bekor qilinib, arizani shu sudning o'zi tegishliligi bo'yicha boshqa sudga o'tkazishi tartibi joriy etiladi.

Tergov ustidan sud nazorati va jinoyat protsessidagi islohotlar

Konstitutsiyaning 26-moddasi hamda «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 16-moddasida belgilangan aybsizlik prezumpsiyasi hamda inson sha'ni va qadr-qimmatini daxlsiz ximoya qilish tamoyillarini rivojlantirish maqsadida quyidagi yangiliklar kiritilmoqda:

«Asosli gumon» (Prima Facie) standarti: 2027-yil 1-iyuldan boshlab tergov sudyasi tomonidan shaxsni ushlab turishning qonuniyligi va gumon qilish uchun asoslar yetarliligi «asosli gumon» xalqaro standarti asosida tekshiriladi.

Tezkor-qidiruv tadbirlariga sud sanksiyasi: Shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini bevosita cheklash bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbirlariga sanksiya berish vakolati to'liq sudlarga o'tkaziladi.

Xalq vakillari xay'ati (Jury): O'ta og'ir jinoyat ishlarini ko'rishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va sud xolisligini oshirish maqsadida xalq vakillari xay'ati instituti joriy etiladi.

3. Ochiqlik, «Pretsedentlar» reestri va sud ma'murchiligi

«Pretsedentlar» reestri: «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 17-moddasiga muvofiq, Oliy sud birxil sud amaliyotini ta'minlashga mas'uldir. Shunga ko'ra, 2027-yil 1-avgustdan boshlab yagona sud amaliyotini shakllantiruvchi Oliy sud Rayosati qarorlarini ochiq e'lon qilish va yangilab borish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Sud ma'murchiligi (Court Administration): 2028-yil 1-yanvardan boshlab sudyalarni odil sudlov bilan bog'liq bo'lmagan tashkiliy va xo'jalik vazifalaridan ozod etish uchun mustaqil sud ma'murchiligi instituti tashkil etiladi.

Proactive Case Management (Iqtisodiy ishlarni proaktiv boshqarish): Iqtisodiy sudlarda jur'iy formal kamchiliklar aniqlanganda, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish majburiyati sudyaga yuklatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Sudlar to'g'risida»gi Qonun hamda Prezidentning PF-160-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «Odil sudlov — 2030» Strategiyasi bir-birini to'ldirgan holda, mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ishonchli ximoya qiluvchi, mustaqil, shaffof va adolatli sud hokimiyatini barpo etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning PF-160-sonli «Odil sudlov — 2030 to'g'risidagi» farmoni.
4. Sud hokimiyati nazariyasiga oid ilmiy adabiyotlar.
5. Sud amaliyotiga oid ilmiy maqolalar.